Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Karriev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashirish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni	1534
Xodjayeva Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarini biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions.....	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil.....	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish.....	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalarini tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish.....	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish.....	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
The period of emergence of accounting policy and its significance in preparing financial statements.....	1611
Sayfulloyev Jamshid Qobil o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar boshqaruv darajalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.....	1615
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
Qishloq hududlarida qayta tiklanuvchi energiya resurslarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan samaradorligi.....	1621
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
Qurilish korxonalarini faoliyatida yashil iqtisodiy infratuzilmani raqamlashtirish.....	1625
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	1630
Ostonov Muhiddin Bahridin o'g'li	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yo'llari.....	1637
Normetov Bobur Sharifboyevich	
Oliy ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyatini tashkil etish va amalda rivojlantirish asoslari.....	1642
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri.....	1649
Luqmonov Sharifxon A'zam o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi energetika sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishning ahamiyati va istiqbollari.....	1653
Uralov Temur Boxodir o'g'li	
Raqamli moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va ularning gaz sanoatida investitsion boshqaruvga ta'siri.....	1658
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash.....	1663
Bo'riyev Sardor Norovich	
O'zbekistonda xalqaro kasbiy ta'lim dasturlari: yangi imkoniyatlar, global ta'lim va xalqaro mehnat bozori integratsiyasi.....	1668
Masharipov Farrux O'tkirovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari.....	1675
Shixiyev Raxim Muhammedovich	
Технологии машинного обучения и мультимодальные подходы в области оценки имущества.....	1682
Мансурова Сайёра Бахтиёр кизи	
Ta'lim klasterlarining rivojlanish omillari va shart-sharoitlari.....	1691
Imamova Nilufar Asamutdinovna	



TA'LIM KLASTERLARINING RIVOJLANISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI

Imamova Nilufar Asamutdinovna

TDSHU, Xalqaro reytinglar bilan ishlash

bo'limi boshlig'i, mustaqil izlanuvchi

E-mail: nilufar_imamova@tsuos.uz

ORCID - 0000-0001-9723-5348

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim klasterlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni shakllanishi va takomillashishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan zarur shart-sharoitlar tahlil qilingan. Shuningdek, omillar va shart-sharoitlarning, xususan, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sharoitlari, ta'lim sifati, hududiy konsentratsiya, talab omillari, hamkor tarmoqlar va davlat siyosati kabi omillarning o'zaro bog'liqligi, ularning ta'lim klasteriga ta'siri natijalari hamda ularni yanada takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Natijada, ta'lim klasterlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur strategik yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, rivojlanish omillari, shart-sharoitlar, siyosiy va huquqiy omillar, iqtisodiy omillar, texnologik omillar, inson kapitali, ta'lim sifati, innovatsion salohiyat, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article analyzes the factors influencing the development of educational clusters and the necessary conditions that play a significant role in their formation and improvement. It examines the interrelationship between these factors and conditions – including the provision of educational services, quality of education, territorial concentration, demand factors, supporting industries, and government policy – as well as their impact on educational clusters and ways to further enhance them. As a result, strategic approaches aimed at increasing the competitiveness of educational clusters have been developed.

Key words: В данной статье проанализированы факторы, влияющие на развитие образовательных кластеров, а также необходимые условия, имеющие важное значение для их формирования и совершенствования. Рассматривается взаимосвязь факторов и условий, в частности условий предоставления образовательных услуг, качества образования, территориальной концентрации, факторов спроса, поддерживающих отраслей и государственной политики, их влияние на образовательный кластер, а также вопросы их дальнейшего совершенствования. В результате разработаны стратегические подходы, направленные на повышение конкурентоспособности образовательных кластеров.

Аннотация: В данной статье проанализированы факторы, влияющие на развитие образовательных кластеров, а также необходимые условия, имеющие важное значение для их формирования и совершенствования. Рассматривается взаимосвязь факторов и условий, в частности условий предоставления образовательных услуг, качества образования, территориальной концентрации, факторов спроса, поддерживающих отраслей и государственной политики, их влияние на образовательный кластер, а также вопросы их дальнейшего совершенствования. В результате разработаны стратегические подходы, направленные на повышение конкурентоспособности образовательных кластеров.

Ключевые слова: образовательный кластер, факторы развития, условия, политико-правовые факторы, экономические факторы, технологические факторы, человеческий капитал, качество образования, инновационный потенциал, конкурентоспособность.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari hamda global raqobatlashuvning chuqurlashib borishi va bilim iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimining samaradorligini oshirish masalasi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida strategik omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda inson kapitali iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida qaralmoqda va uning shakllanishida ta'lim tizimi, xususan, ta'lim klasterlari alohida o'rin egallaydi. Ta'lim sohasida amalga oshiriladigan klasterlash mexanizmi orqali ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish va davlat boshqaruvi o'rtasida sinergiya hosil qilinadi, bu esa, innovatsion taraqqiyot va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda ta'lim klasterlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, sanoat korxonalarini va davlat organlarini yagona ekotizimga birlashtirib, bilim va innovatsiyalar almashinuvini jadallashtiradi. Ta'lim klasterlarining samarali



faoliyati nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi, yangi ish o'rinlari yaratadi va innovatsion salohiyatni kuchaytiradi. Shu boisdan ta'lim klasterlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish, ularning shakllanishi va takomillashishi uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash hamda bu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Mazkur omillarning o'zaro ta'siri ta'lim klasterlarining samarali faoliyatini belgilab beradi. Shu sababli, ularni tizimli tahlil qilish, mavjud shart-sharoitlarni baholash hamda rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish ta'lim klasterlari faoliyatini takomillashtirish va milliy ta'lim tizimining global raqobatbardoshligini oshirishda ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ta'lim klasterlari samaradorligiga ta'sir etuvchi siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va xalqaro omillarni tizimli o'rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Metodologik yondashuv sifatida tizimli va institutsional tahlil qo'llanib, ta'lim klasterlarining rivojlanishida davlat siyosati, iqtisodiy muhit va texnologik imkoniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar ochib berildi. Tadqiqot natijalari sifatida O'zbekistonda ta'lim klasterlari raqobatbardoshligini belgilab beruvchi omillar va shart-sharoitlarga oid strategik yondashuvlar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Milliy iqtisodiyotda klasterlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, ularni shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlash bo'yicha mahalliy va xorijiy bir qator iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Xususan, tadqiqotchi D.K.Begimova klasterlar va ularga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha shunday ta'kidni keltirgan, "muvaffaqiyatli klasterlar hududda shakllangan kuchli iqtisodiy tuzilma bazasida tashkil etiladi. Bunday tuzilma sifatida resurslarni (moliyaviy, mehnat, axborot va b.lar) jalb qiluvchi "tortishish markazlari" hisoblangan yirik korxonalar va institutlar maydonga chiqadi. Klasterlarning tashqi aralashuvlarsiz, korxonalararo kooperatsion aloqalarning tabiiy rivojlanishi natijasida shakllanishi jarayoni katta muddat talab etib, markaziy va mintaqaviy boshqaruv organlarini hududni rivojlantirish maqsadida klasterlar faoliyatini turli usullar bilan rag'batlantirishga harakat qiladilar"¹.

Klasterlarga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha G.E.Zaxidov shunday degan, "klasterlarni iqtisodiyotning o'zini o'zi tashkil etish jarayoni sifatida ko'rib chiqqanda, shuni ta'kidlash kerakki, hududiy konsentratsiya omillari, shuningdek, iqtisodiy o'zgaruvchilar va jamiyatning klaster hosil bo'lishi uchun muhit sifatidagi xususiyatlari iqtisodiy muhitning klasterlashuviga faqat ularning ta'siri o'zaro muvofiqlashgan va iqtisodiy tizimning o'zida ularning ichki o'zaro bog'liqligi va shartlanganligi tamoyili mavjud bo'lgan taqdirdagina yordam berishi mumkin. Bu omillarga, xususan, quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish sharoitlari omillari; talab omillari; firmalarning strategiyasi, ularning tuzilmasi va raqobati; tutash va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar"².

N.Sh.Dexkanovanning fikricha, klasterlarning rivojlanishi aynan quyidagilarga bog'liq, "jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, klasterlarning samarali rivojlanishi faqat klaster tashabbuslarini amalga oshirishga bog'liq bo'ladi. Innovatsion klasterlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda, bu ushbu hududlardagi korxonalarining innovatsion faolligini oshirishga yordam berishi mumkin"³.

O.V.Antipova, O.V.Kiselevaning fikricha esa, "klasterlarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri – kompaniyalar, oliy o'quv yurtlari va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlari (ITTKI) va ta'lim dasturlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro aloqalar va harakatlarni muvofiqlashtirishning mavjudligidir. Zamonaviy sharoitda mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning muhim omillaridan biri — ta'lim muassasalari, tadbirkorlik tuzilmalari va davlat o'rtasidagi yaqin hamkorlikdir. Bunday davlat-xususiy sheriklikdagi alyansni yaratilishi natijasida nafaqat institutsional, tashkiliy va strategik vazifalar hal qilinadi, balki turli sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar ham amalga oshiriladi"⁴.

Shuningdek, bir qancha olimlar klasterlar faoliyatini samaradorligini aniqlashda klasterlarga ta'sir etuvchi omillarning regression modelidan foydalanishni ham taklif qilganlar.

1 D.K.Begimova. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish. Monografiya. ISBN 978-9910-8872-3-9 ©«MOHIRBEK-ZIYO» nashriyoti. 162 b.

2 Г.Э.Захидов. Факторы формирования кластерного производства. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2015 йил. 1-6 стр.

3 Н.Ш.Дехканова. Организация инновационных кластеров в управлении инновационно-инвестиционной деятельностью промышленных предприятий. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil. 179-184 betlar.

4 Антипова О.В., Киселева О.В. Модель оценки научно-образовательного кластера в регионе // Krasnoyarsk Science. – 2016. – № 4(37). – С. 122–138. – DOI: 10.12731/2070-7568-2016-4-122-138.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim klasteriga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarni tahlil qilishga kirishishdan avval ta'lim klasterlarining o'z shakllanish va takomillashish jarayonida eng avvalo, shakllanishining kritik massasiga ega bo'lishlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Kritik massa — bu klasterning barqaror shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan minimal miqdordagi ishtirokchilar, resurslar va aloqalarning yig'indisidir. Oddiy qilib aytganda, ta'lim klasterining muvaffaqiyatli ishlashi uchun yetarli "hajm" va "sifat"dagi omillar majmuasining yig'indisi.

Ta'lim klasteridagi kritik massa quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Tarkibiy tuzilmaviy jihatdan institutsional ishtirokchilar soni – yetarli miqdorda universitetlar, umumta'lim maktablari, ilmiy-tadqiqot institutlari, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarining mavjud bo'lishi; ishlab chiqarish sohasi, biznes subyektlari, davlat va nodavlat tashkilotlari klasterda faol ishtirok etishi; malakali professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va yuqori salohiyatli talabalar hamda moddiy-texnik baza, moliyaviy mablag'lar va grantlarning mavjudligi.

Kritik massaga ega bo'lgandan so'ng, ta'lim klasterining samarali faoliyati uchun ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish mumkin. Klasterning o'ziga xos ichki omillari - klasterning ichki tuzilishi, resurslari va ishtirokchilar faoliyati bilan bog'liq omillardir. Ularga inson kapitali – professor-o'qituvchilar salohiyati, ilmiy tadqiqotchilar sifati, talabalar bilim darajasi; ta'lim sifati – o'quv dasturlari, ta'lim standartlari, innovatsion usullarning qo'llanilishi; hamkorlik darajasi – universitet, maktab, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi samarali aloqalar; resurslar – moliyaviy mablag'lar, moddiy-texnik baza, kutubxona va laboratoriyalar; innovatsion salohiyat – yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, startap va ilmiy loyihalar soni; boshqaruv samaradorligi – klaster ichidagi muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati, boshqaruv mexanizmlari, monitoring tizimi.

Makro va mezo darajadagi shart-sharoitlarni o'z ichiga olgan tashqi omillar – bu klasterning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lgan omillardir. Bularga, xususan, siyosiy-huquqiy omillar – davlat siyosati, qonunchilik, ta'lim va ilmiy sohadagi islohotlar; iqtisodiy omillar – milliy iqtisodiyot holati, investitsiya muhiti, moliyalashtirish imkoniyatlari; ijtimoiy omillar – aholining ta'limga bo'lgan ehtiyoji, demografik o'sish, ijtimoiy qadriyatlar; texnologik omillar – raqamli transformatsiya, ilm-fan va texnologiyalar rivoji, innovatsion infratuzilma; xalqaro omillar – global reytinglar, xalqaro grantlar, xorijiy hamkorlik dasturlari (Erasmus+ mobilik dasturlari va b.), chet el universitetlari bilan aloqalar; hududiy omillar – mintaqaning iqtisodiy salohiyati, transport va infratuzilma rivojlanganligi, mehnat bozori ehtiyojlari va boshqalar.

Mazkur ta'lim klasterlariga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlarni umumiy tavsifini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval. Ta'lim klasterlariga ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlar⁵

Omillar	Jihatlar	Shart-sharoitlar
Siyosiy va huquqiy omillar	Ta'lim siyosati	hukumatning ta'limga bo'lgan yondashuvi; ta'lim tizimining yangilanib borishi; innovatsion metodlarni qo'llab-quvvatlash; ta'limga ajratiladigan mablag'lar; ta'limni erkinlashtirish; ta'lim muassasalarini boshqarishdagi o'zgarishlar.
	Huquqiy doiradagi o'zgarishlar	ta'lim sohasidagi normativ hujjatlar; ta'lim muassasalarining faoliyatini tartibga solish; diplomlarni tan olish; xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish.
Iqtisodiy omillar	Moliyaviy resurslar	davlat va xususiy sektordan ajratiladigan moliyaviy mablag'lar; grantlar va investitsiyalar; ta'lim klasterlarining infratuzilmasi va innovatsion faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash.
	Mehnat bozorida talab va taklif	ta'lim klasterlari hamda sanoat o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro muvofiqlik; ish beruvchilar bilan o'zaro aloqalar; ish beruvchilarning kadrlar tayyorlashdagi ishtiroki; mehnat bozorida talab etiladigan kasblar ta'lim klasterlari orqali tayyorlanishi.
	Innovatsiyalar va texnologiyalar	texnologik taraqqiyot va innovatsion yondashuvlar; raqamli ta'lim texnologiyalari; onlayn ta'lim platformalari; sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi; ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirilishi.

5 Muallif tomonidan tuzilgan.



Ijtimoiy omillar	Jamiyatning ta'limga bo'lgan talabi	jamiyatdagi ta'lim olish va o'rganish madaniyati; ta'limning ahamiyati haqidagi qarashlar; professor-o'qituvchilar va talabalar orasidagi o'zaro ishonch.
	Kadrlar malakasi	ta'lim klasterlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun yuqori malakali o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, boshqaruvchilarning tayyorlanishi; kadrlar tayyorlash va ularning malakasini doimiy oshirilishi.
	Madaniyat va tildagi farqlari	ta'lim klasterlari jahon miqyosida muvaffaqiyatli ishlashi uchun turli madaniyatlar va tillarni o'zaro integratsiyasining amalga oshirilishi; xalqaro talabalar almashinuvi va hamkorlikni yo'lga qo'yish.
Texnologik omillar	Ta'limga zamonaviy ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi	raqamli ta'lim texnologiyalari; masofaviy ta'lim; interaktiv ta'lim platformalari; yangi o'qitish uslublari; yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim tizimining sifatini oshirish va o'quv jarayonlarini yanada samarali qilish.
	Innovatsion ta'lim metodologiyalari	innovatsion ta'lim metodologiyalari; muammoli ta'lim; loyihalar asosidagi o'qitish; laboratoriya ishlarining kengaytirilishi.
Xalqaro aloqalar va global hamkorlik omillari	Xalqaro hamkorlik va aloqalar	xalqaro tashkilotlar, universitetlar va ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqalar; ta'lim klasterlariga yangi tajribalar, ilmiy grantlar va global platformalar orqali yangi imkoniyatlarni yaratish.
	Ta'limning globallasuvi	ta'lim klasterlari global mehnat bozorida talab etilgan kasblarni tayyorlashi; xorijiy talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish; milliy ta'lim tizimlarini global talablarga moslashtirish.

Mazkur jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim klasterlarining shakllanishi va rivojlanishi ko'p omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuz beradi va bu jarayon kompleks yondashuvni talab qiladi. Siyosiy va huquqiy omillar ta'lim tizimining barqarorligi va rivojlanishiga zamin yaratadi, xususan, hukumatning ta'lim siyosatiga e'tibori, normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv tizimidagi islohotlar klasterlarning samarali faoliyat yuritishiga asos bo'ladi. Iqtisodiy omillar esa, moliyaviy resurslar, investitsiyalar va grantlar orqali klaster infratuzilmasi hamda innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Mehnat bozori bilan muvofiqlik ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

Ijtimoiy omillar ham muhim rol o'ynaydi, xususan, jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyoji, kadrlar malakasi va madaniy integratsiya ta'lim klasterlarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Texnologik omillar raqamli ta'lim, masofaviy o'qitish va innovatsion metodologiyalarni joriy etish orqali ta'lim jarayonini modernizatsiya qiladi, uning samaradorligini oshiradi. Xalqaro hamkorlik va globallasuv omillari esa, ta'lim klasterlarini jahon ta'lim maydoniga integratsiya qiladi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va tajriba almashinuvini rivojlantiradi.

Ta'lim klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha qonuniy-huquqiy asos sifatida hamda faoliyatini takomillashtirish shart-sharoitlari borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmonining "2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ta'lim tizimi islohotlari yo'nalishida bir qancha chora-tadbirlarni, xususan, oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo'nalishlar bilan boyitish, iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxonalar — oliygoh — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish kabi bandlarida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishni keltirish mumkin⁶.

Yuqorida keltirilgan jadval bo'yicha omillar tahlili xususiy jihatdan ko'rib o'tiladigan bo'lsa, asosiy omillardan biri bu iqtisodiy omillardir, ya'ni ta'lim klasterlarini shakllanishi va rivojlanishi uchun davlat va xususiy sektordan ajratiladigan moliyaviy mablag'lar, grantlar va investitsiyalar hamda ta'lim klasterlarining infratuzilmasi va innovatsion faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlaridir. Mazkur holat bo'yicha ta'limga qilingan davlat xarajatlari tahlilini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

2-jadval. a'limga qilingan davlat harajatlari⁷ (mlrd so'm hisobida)

	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	20721,1	33536,1	29961,1	39640,8	50271,3	61220,3	71240,5

Mazkur keltirilgan jadval 2018–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'limga qilingan davlat xarajatlari (mlrd. so'mda) ko'rsatkichlarini namoyon qiladi. Unda davlat xarajatlari dinamikasi 2018-yilda 20,7 trln.so'm, 2019-yilda 33,5 trln.so'mni, o'sish 60 foizga yaqinni tashkil etgan, 2020-yilda esa, pandemiya ta'siri sabab biroz pasayish, ya'ni 29,9 trln.so'm, 2021-yilda tiklanish va o'sish evaziga 39,6 trln.so'mni tashkil etgan. Umuman olganda, 7 yil ichida xarajatlar 3,4 barobarga oshgan. Davlat xarajatlari 2018-yildagi 20,7 trln.so'mdan 2024-yilda 71,2 trln.so'mga, o'sish 243 foizni tashkil etdi. Xarajatlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur xarajatlar ta'limning barcha darajalariga teng tasimoti amalga oshirilishiga erishilmagan, xususan xarajatlarning katta qismi umumiy o'rta ta'lim va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilganligini aytish mumkin.

Ikkinchi tahlil ta'lim klasterlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud ta'sir etuvchi omillar natijasida ta'lim klasteri yadrosi bo'lgan OTMLar tomonidan tayyorlangan hamda ularning asosiy natijaviylik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan OTMLar bitiruvchilari soni bilan bog'liq.

3-jadval. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining bitiruvchilari soni (hududlar kesimida)⁸

	2014	2016	2018	2020	2022	2024
O'zbekiston Respublikasi	67643	64133	70325	83905	102381	211197
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3752	3939	4484	5475	6545	14527
Andijon viloyati	3425	4039	4791	4622	4963	13887
Buxoro viloyati	3484	3376	3523	4784	6017	10755
Jizzax viloyati	2183	2261	2872	3862	3822	7360
Qashqadaryo viloyati	2834	3111	3842	5193	5896	12621
Navoiy viloyati	2088	2097	2300	3107	3253	5735
Namangan viloyati	2891	2734	3004	4113	5508	12396
Samarqand viloyati	5708	5986	6869	7165	8962	17649
Surxondaryo viloyati	1687	1705	1962	3329	3962	14294
Sirdaryo viloyati	1006	983	1014	1632	1938	4367
Toshkent viloyati	3111	1797	2710	4041	4049	12014
Farg'ona viloyati	4633	4657	4557	5833	8289	21275
Xorazm viloyati	2038	1984	2229	3229	4046	9672
Toshkent shahri	28803	25464	26168	27520	35131	54645

Mazkur jadvalda respublika miqyosida 2014-yilda 68 ta OTM bo'yicha 67,6 ming bitiruvchi, ya'ni har bir OTM o'rtacha 995 nafar bitiruvchi tayyorlangan. 2019-yilda 119 ta OTM bo'yicha 70,7 ming bitiruvchi, o'rtacha 594 nafar bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 222 ta OTM bo'yicha 211 ming bitiruvchini, o'rtacha 951 nafarni tashkil etgan. Demak, dastlab OTMLar soni tez o'sgani sababli o'rtacha bitiruvchilar soni kamaygan, ammo 2021–2024 yillarda talabalar oqimi ham keskin ortib, har bir OTM bo'yicha yuklama qayta ko'tarilgan.

Umumiy respublika bo'yicha 2014–2018 yillarda bitiruvchilar soni deyarli barqaror (65–70 ming atrofida), 2019–2020 yillarda sezilarli o'sish boshlanadi (70 mingdan 83 mingga), 2021–2022 yillarda tez o'sish (103 ming), lekin barqaror darajada, 2023–2024 yillarda keskin sakrash – 184 ming va 211 mingga chiqdi. Bu O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'limga qabul kvotalarining oshirilishi va yangi OTMLar ochilishi hamda ular uchun yaratilgan qulay iqtisodiy hamda infratuzilmaviy shart-sharoitlar va omillar bilan bog'liq.

Hududlar bo'yicha katta ulush Toshkent shahriga to'g'ri keladi, 2014-yilda bitiruvchilar soni 28 ming bo'lsa, 2024-yilda 54 mingdan oshgan. Bu umumiy bitiruvchilarning qariyb 25 foizini tashkil qiladi. Samarqand, Farg'ona, Andijon viloyatlari ham yuqori ko'rsatkichlarga ega. Masalan, Farg'onada 2014-yilda 4633 nafar

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz




bitiruvchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda mazkur ko'rsatkich 21 mingdan oshgan, o'sish 4,5 barobarni tashkil etgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo viloyatlari ham o'sish trendida, ammo mutlaq son jihatdan Toshkent shahri va Samarqanddan nisbatan pastroq ko'rsatkichga ega. Nisbatan past ko'rsatkichlar Sirdaryo viloyatida 2014-yilda 1006 nafar bitiruvchi, 2024-yilda 4367 nafarni, lekin bu ham 4 barobardan ortiq o'sishni ko'rsatadi. Toshkent viloyatida 2014-yilda 3111 nafar bitiruvchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 12 mingdan oshgan – bu ham 4 martalik o'sish demakdir.

Asosiy xulosalar sifatida 2019-yildan boshlab oliy ta'lim siyosati tubdan o'zgargan – qabul kvotalari kengaydi, yangi universitetlar ochildi, qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida bitiruvchilar soni keskin oshdi, Toshkent shahri yetakchiligini saqlab qolmoqda, lekin viloyatlarda ham o'sish dinamikasi kuchli, Farg'ona vodiysi hududlari (Farg'ona, Andijon, Namangan)da bitiruvchilar soni yuqori bo'lib, bu mintaqaning demografik salohiyati va ta'limga talab kuchli ekani hamda ta'limga oid shart-sharoitlarni takomillashib borayotganini ko'rsatadi, 2023–2024 yillardagi o'sish rekord darajada, bu kelgusida mehnat bozorida oliy ma'lumotli kadrlar sonining ko'payishini bildiradi.

Davlat ta'lim xarajatlari va OTM bitiruvchilari soni (2018–2024) bo'yicha birgalikdagi tahlil natijalari, 2018–2024 yillar oralig'ida ta'limga qilingan davlat xarajatlari 20,7 trln.so'mdan 71,2 trln.so'mgacha oshdi, ya'ni qariyb 3,5 barobar ko'paydi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari soni ham keskin o'sdi (2018 yilda 98 ta bo'lsa, 2024 yilda 222 taga yetdi). Natijada bitiruvchilar soni ham yildan-yilga ko'payib bordi. Bu jarayon shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlari ta'lim tizimida infratuzilma va qamrovni kengaytirishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq xarajatlarning o'sishi bitiruvchilar sonining o'sishiga nisbatan tezroq kechmoqda. Demak, mablag'larning katta qismi hali tizimni kengaytirish va sifatni oshirishga yo'naltirilmogda, bitiruvchilar samarasi esa, vaqt o'tishi bilan yanada ko'proq seziladi.

Davlat ta'lim xarajatlari va OTM bitiruvchilari soni (2014–2024)

1-rasm. Davlat ta'lim xarajatlari va OTM bitiruvchilari soni (2014–2024 yillar)⁹

Keyingi bosqichda tahlil ta'lim klasterlarining faol ishtirokchilari bo'lgan ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlar soni bo'yicha amalga oshiriladi. Ularning faoliyati ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida ularning son va sifat jihatidan takomillashuvi bilan bog'liq.

4-jadval. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (yillik, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha) birlikda

	2014	2016	2018	2020	2021	2022	2023	2024
Ta'lim sohasi	19042	19925	20226	27755	29241	31756	34135	31185

Mazkur jadvalda 2014–2024 yillarda ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlar soni tahlil qilinadi, unga ko'ra, umumiy dinamik ko'rinish 2014-yilda 19,042 ta bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda 24,923 taga yetgan, 2022-yilda 31,756 taga ko'tarilib, yuqori cho'qqiga yaqinlashgan. 2023-yilda 34,135 taga chiqib, butun

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



davr bo'yicha yuqori ko'rsatkichga erishilgan, 2024-yilda esa, biroz pasayib, 31,185 taga tushgan. Shunday qilib, 10 yillik davrda ta'lim sohasidagi faoliyat yurituvchi subyektlar soni 12 mingdan ortiqqa oshgan, ya'ni qariyb 1,6 barobar ko'paygan.

O'sish tendensiyalari 2014–2018 yillar sekin, ammo barqaror o'sish, yiliga o'rtacha 200–500 ta, 2019–2021 yillar sezilarli tezlashuv amalga oshirilgan. Bu davrda xususiy sektor va nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun yaratilgan qulay normativ-huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar va omillar natijasida faollashgani seziladi. 2022–2023 yillar yuqori cho'qqi, 34 mingdan ortiq subyekt faoliyat yuritgan. 2024-yilda 2,950 taga pasayish kuzatilgan, oshib borgan son sifat tomon takomillashganini ham ko'rish mumkin, ya'ni, buning sabablari sifatida litsenziya talablariga javob bermagan nodavlat tashkilotlarning yopilishi yoki qayta ro'yxatdan o'tkazilishi, konsolidatsiya jarayonlari bo'lishi mumkin.

Shuningdek, mazkur davrlar mobaynida xususiy sektorni jalb etish siyosati amalga oshirilishi natijasida maktabgacha ta'lim, til markazlari, nodavlat OTM va kasb-hunar markazlari ochildi. Davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, subsidiya va grantlar natijasida yangi tashkilotlar vujudga keldi, ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'limning ommalashuvi va oliy ta'lim qamrovining oshishi hamda yangi o'quv markazlari sonini keskin ko'payishi kuzatildi. 2024-yildagi qisqarish nazorat kuchayishi, sifatni oshirish uchun ayrim tashkilotlar yopilgani bilan izohlanadi.

Tavsiyalar sifatida ta'lim klasterining innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarini regressiya modeli orqali ham baholash va bu orqali tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni keltirish mumkin.

Ushbu tahlilda ta'lim klasterining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Natijaviy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar olinadi:

Y_1 – ta'lim sifati ko'rsatkichi (talabalar bilim darajasi, o'quv rejaları va dasturlarining zamonaviyligi);

Y_2 – yangi ta'lim texnologiyalari va innovatsion ta'lim usullarining joriy etilish darajasi;

Y_3 – bitiruvchilar bandligi va mehnat bozorida talab darajasi (ishga joylashish foizi).

Omillar tizimi bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha tavsiflanadi:

5-jadval. Oliy ta'lim tizimida samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari va ularning o'lchash usullari

Ko'rsatkich	O'lchash usuli
x_1	Yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish xarajatlari (raqamli ta'lim platformalari, onlayn kurslar);
x_2	Ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan investitsiyalar (laboratoriyalar, kutubxonalar, IT jihozlari);
x_3	Yangi o'quv dasturlari va kurslarini ishlab chiqish va tasdiqlash soni;
x_4	Professor-o'qituvchilar malakasini oshirish darajasi (seminarlar, xorijiy stajirovkalar);
x_5	Bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash darajasi va ish beruvchilarning qoniqishi darajasi;
x_6	Ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olingan grantlar va loyihalar soni/miqdori;
x_7	Talabalar sonining o'sish sur'ati va klasterdagi raqobatbardoshlik ko'rsatkichi;
x_8	Ta'lim sifatini baholovchi xalqaro reytinglarda (QS, THE) ko'rsatkichlar o'sishi;
x_9	Hamkorlik shartnomalari va qo'shma ta'lim dasturlari soni (xalqaro va milliy darajada);
x_{10}	Ta'lim xizmatlari eksporti (xorijiy talabalar soni va ulardan tushgan daromad).

Mazkur usul yuqori malakali mutaxassislar – ta'lim sohasidagi ekspertlar, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar hamda talabalar fikrini o'rganishga asoslanadi. Olingan ma'lumotlar noaniqliklar nazariyasi va regressiya tahlili yordamida qayta ishlanadi.

Bu tavsiyalar ta'lim klasterining raqobatbardoshligini oshirish va hududiy hamda global mehnat bozorida samarali integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin, xususan, ta'lim klasterlari shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli tarzda uyg'unlashganida ta'lim klasterlari yanada samarali, innovatsion va raqobatbardosh shaklda rivojlanadi. Bu esa, milliy ta'lim tizimini global mehnat bozori talablariga moslashtirish va inson kapitali sifatini oshirishga xizmat qiladi;

Ta'limga qilingan davlat xarajatlarini 2018-yildagi 20,7 trln.so'mdan 2024-yilda 71,2 trln.so'mga oshganini, o'sish 243 foizni tashkil etganini inobatga olib, mazkur xarajatlarning keyingi taqsimotini ta'limning barcha darajalariga teng amalga oshirilishi hamda aynan ta'lim klasterlari tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga,



shuningdek, “O‘zbekiston 2023-srategiyasi”da belgilangan ta’limga oid chora-tadbirlarga yo‘naltirilishini ta’minlanishi maqsadga muvofiqdir;

2014–2023 yillar davomida ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlar soni uzluksiz o‘sgan, bu esa, ta’lim bozorining liberallashtirishini, ular uchun qulay investitsion hamda infratuzilmaviy imkoniyatlar, shart-sharoitlarning yaratilganini hamda xususiy sektor faol ro‘l o‘ynayotganidan dalolat beradi. 2024-yildagi pasayish esa, sifat nazorati va tizimni sog‘lomlashtirish bosqichi sifatida baholanishi mumkin. Mazkur holatdan kelib chiqib, xususiy mukhlilikka asoslangan, liberal klaster siyosati bo‘yicha xususiy sektor tashabbuslari asosida tashkil etiladigan ta’lim klasteri faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishda ular uchun qulay institutsional omillar va shart-sharoitlarni yaratish va bu orqali ta’limda sifat va raqobatbardoshlikka erishish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, bu orqali mamlakatda milliy ta’lim klasterlarining shakllanishi va takomillashuvi samarali amalga oshiriladi, xususiy sektorning faol qatnashuvi asosida ta’lim klasterlarining samaradorligi va raqobatbardoshligi ta’minlanadi, natijada esa, milliy iqtisodiyotda innovatsion faoliyat hamda barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlanishi yo‘lga qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. D.K.Begimova. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish. Monografiya. ISBN 978-9910-8872-3-9 ©«MOHIRBEK-ZIYO» nashriyoti. 162 b.
3. Г.Э.Захидов. Факторы формирования кластерного производства. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналі. № 3, май-июнь, 2015 йил. 1-6 стр.
4. Н.Ш.Дехканова. Организация инновационных кластеров в управлении инновационно-инвестиционной деятельностью промышленных предприятий. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil. 179-184 betlar.
5. М.С.Лапина. Совершенствование кластерной политики региона на основе модернизации инструментария оценки её эффективности. Дисс. на соиск. уч. степени к.э.н. – М.: Волгоград., 2021. – 26 с.
6. Oakey, R. (2007). Clustering and the R&D management of high-technology small firms: in theory and practice, R&D Management, Vol. 37 (3), pp. 237-248.
7. О.В.Антипова, О.В.Киселева. Модель оценки научно-образовательного кластера в регионе // Krasnoyarsk Science. – 2016. – № 4(37). – С. 122–138. – DOI: 10.12731/2070-7568-2016-4-122-138.
8. В.И.Королев. Современные тенденции развития международных кластеров. Российский внешнеэкономический вестник. № 12 – 2023. Стр. 7-15.
9. <https://www.educationcluster.net/>
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
